JIZZAX VILOYATI
XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING
QARORI

2023 - yil 24 - fevral VI-54-44-3-44-K/23 Baxmal tumani hokimligi

Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli, 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, shuningdek Baxmal tumani hokimining 2022-yilning 18-mayida tasdiqlagan 01-1635-sonli chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan tumandagi 33 ta mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlaridan 133 ta nomsiz ko‘chalar aniqlangan va nomlanib, davlat ekpertizasiga yuborilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yilning 21-dekabr kuni 08-11448-sonli ekspert xulosasi kelib tushdi. Xulosaga ko‘ra, 79 ta geografik ob’yekt nomi “Geografik ob’yektlar to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, 54 ta geogafik ob’yekt nomi shaxs nomlariga bog‘liqligi va bugungi kunda bu loyiha ustida ish olib borilayotganligi sababli qonun hujjatlari talablariga nomuvofiq deb topilgan. Nomi qonun talablariga muvofiq deb topilgan 79 ta geografik ob’yekt nomlarini ko‘rib, Kengash tasdig‘idan o‘tkazish uchun kun tartibiga kiritildi.

Tumanda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar to‘g‘risidagi tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshrish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Kuliyevaning axborotini muhokama qilib, mahalliy davlat to‘g‘risidagi Qonunning 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yilning 21-dekabr kuni 08-11448-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda respublika toponomika xizmati Ekspert komissiyasi xulosasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tumanda amalga oshirilishi kerak bo‘lganishlar to‘g‘risidagi tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Kuliyevaning axborotini ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari-mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (B.Mirzabekov)ga yangi nomlangan ko‘chalarda ishlarni tashkil etish va yakuniga yetkazish topshirilsin.

4. Tuman kadastr va tuman stasistika bo‘limlariga yangi nomlangan va nomi o‘zgargan geografik ob’yektlarni tuman xaritasiga joylashtirish, shuningdek tegishlicha tuman stastistika ma’lumotlariga o‘zgartirishlar kiritsin.

5. “Geografik ob’yektlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-303 sonli Qonunning 16-moddasiga ko‘ra Geografik oob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasiga ushbu geografik ob’yektlarga nom berilganligi va ularning nomlari o‘zgartirilganligi to‘g‘risidagi hujjatlarni Geografik ob’yektlar nomlarining davlat reyestriga kiritish uchun o‘n kun muddatda O‘zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qo‘mitasiga taqdim etish vazifasi topshirilsin.

6. “Geografik ob’yektlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-303 sonli Qonunning 20-moddasiga Aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish tegishli mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi uchun Tuman moliya bo‘limi (I.Kenjayev)ga begilangan tartibda moliyalashtirish vazifasi yuklatilsin.

7. “Baxmal hayoti” gazetasi tahririyati (T.Berdiyev) va tuman hokimlgi axborot xizmati (A.Egamberdiyev)larga O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlpari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni ommaviy-axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman hokimining o‘rinbosari X.Xo‘jamurotov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi, tuman hokimi **M.Anarbayev**

Xalq deputatlari Baxmal tuman
Kengashining
2023 yil 24 fevraldagi
VI-54-44-3-44-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi geografik ob’yektlarning nomi

№	Geografik ob’yektning toifasi	Geografik ob’yektning joylashgan o‘rni	Tuman Kengashida tasdiqlangan geografik ob’yektning nomi
1	ko‘cha	Nurafshon MFY	Ozod diyor
2	ko‘cha	Do‘stlik MFY	Marjon
3	ko‘cha	Do‘stlik MFY	Havaskor
4	ko‘cha	Yangibog‘ MFY	Otamakon
5	ko‘cha	Sangzor MFY	Chorguzar
6	tor ko‘cha	Sangzor mahallasi	Chorguzar-1
7	ko‘cha	G‘allakon MFY	Yang‘oqsoy
8	ko‘cha	G‘allakon MFY	Burguttepa
9	ko‘cha	G‘allakon MFY	Qo‘yguzar
10	ko‘cha	G‘allakon MFY	Chumchuqtepa
11	ko‘cha	G‘allakon MFY	Safarobod
12	ko‘cha	G‘allakon MFY	Obodgo‘sha
13	ko‘cha	G‘allakon MFY	Obodyo‘l
14	ko‘cha	G‘allakon MFY	Obodmahalla
15	ko‘cha	Mo‘g‘ol MFY	Hamdo‘stlik
16	Tor ko‘cha	Mo‘g‘ol MFY	Hamdo‘stlik -1
17	ko‘cha	Mo‘g‘ol MFY	Umumxalq
18	Tor ko‘cha	Mo‘g‘ol MFY	Umumxalq-1
19	ko‘cha	Novqa MFY	Onavatan
20	ko‘cha	Novqa MFY	Storai Mohi Xosa
21	ko‘cha	Novqa MFY	Tiniqsoy
22	ko‘cha	Novqa MFY	Qaynarbuloq
23	ko‘cha	Novqa MFY	Palvontosh
24	ko‘cha	Novqa MFY	Kattabog‘
25	ko‘cha	Novqa MFY	Kengdala
26	ko‘cha	Novqa MFY	Katta masjid
27	ko‘cha	Novqa MFY	Elsevar

28	ko‘cha	Novqa MFY	Beltepa
29	ko‘cha	Novqa MFY	Bog‘mahalla
30	ko‘cha	Novqa MFY	Keldiyor
31	ko‘cha	Novqa MFY	Pastguzar
32	ko‘cha	Oyqor MFY	Sarlochin
33	ko‘cha	Oyqor MFY	Abdulla shoir
34	ko‘cha	Oyqor MFY	Barkamol avlod
35	ko‘cha	Oyqor MFY	Sog‘lom turmush
36	ko‘cha	Oyqor MFY	Yurt iftihori
37	ko‘cha	Oyqor MFY	Sharq yulduzi
38	ko‘cha	Oyqor MFY	O‘zbekiston ovozi
39	ko‘cha	Oyqor MFY	Izzat-ikrom
40	ko‘cha	Oyqor MFY	Baxt-iqbol
41	ko‘cha	Oyqor MFY	Baxt-saodat
42	ko‘cha	Gulbuloq MFY	Mehr-muruvvat
43	ko‘cha	Nurafshon MFY	Mehr-oqibat
44	ko‘cha	Tongotar MFY	Tinch-totuv
45	ko‘cha	Navbahor MFY	Shod-hurram
46	ko‘cha	O‘rmonchi MFY	Qadr-qimmat
47	ko‘cha	Gulbuloq MFY	Qut-baraka
48	ko‘cha	Baxmal MFY	21-mart
49	ko‘cha	Oqtosh MFY	Mo‘jaz
50	ko‘cha	Qutlug‘obod MFY	Vatan himoyachilari
51	ko‘cha	Bunyodkor MFY	Marhamatli
52	ko‘cha	Bog‘ishamol MFY	Ehtirom
53	ko‘cha	Gulbahor MFY	Mahalla ko‘zgusi
54	ko‘cha	Sangzor MFY	Insonparvar
55	ko‘cha	Sangzor MFY	Millatparvar
56	ko‘cha	Gulbuloq MFY	Hur o‘lka

57	ko‘cha	Fayzobod MFY	Beshariq
58	Tor ko‘cha	Fayzobod MFY	Sangzor-1
59	ko‘cha	Fayzobod MFY	Sportchilar
60	ko‘cha	Fayzobod MFY	Ziroatchilar
61	ko‘cha	Fayzobod MFY	Fermerlar
62	ko‘cha	Fazobod MFY	Quyoshli o‘lka
63	ko‘cha	Fayzobod MFY	Olimlar
64	ko‘cha	Fayzobod MFY	Dehqonobod
65	ko‘cha	Fayzobod MFY	Yorqin kelajak
66	ko‘cha	Fayzobod MFY	Yangilanish-1
67	ko‘cha	Fayzobod MFY	Ozodlik
68	ko‘cha	Fayzobod MFY	Baxmal
69	Tor ko‘cha	Fayzobod MFY	Ko‘hna Xeva
70	ko‘cha	Fayzobod MFY	Peshqadam
71	ko‘cha	Fayzobod MFY	Inoqobod
72	ko‘cha	Fayzobod MFY	Eskibog‘
73	ko‘cha	Fayzobod MFY	Oydinhayot
74	ko‘cha	Fayzobod MFY	Yakkasada
75	ko‘cha	O‘smat MFY	Mingchinor
76	ko‘cha	O‘smat MFY	Saodat asri
77	ko‘cha	O‘smat MFY	O‘zbekiston
78	ko‘cha	O‘smat MFY	Mustaqil
79	ko‘cha	O‘smat MFY	Yangishahar